

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARGA DARS O‘TISH
JARAYONIDA MULTIMEDIYA VOSITALARIDAN
FOYDALANISHNING IJOBIY VA SALBIY TARAFLARI**

Shonazarova Nozima Ruslanovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta’lim
fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: shonazarovanozima4@gmail.com

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dars o‘tish jarayonida multimedya vositalaridan foydalanishning yaxshi va yomon taraflari haqida so‘z borgan va muallif tomonidan fikr va xulosalar keltirib o‘tilgan. Xususan, bugungi innovatsiya va texnika rivojlangan bir davrda yosh avlodga bilim berishda bu vositalardan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish, qolaversa kichik sinfdan boshlab o‘quvchilarda multimedia vositalari haqida tushuncha paydo qilish haqida aytib o‘tilgan. Shu bilan bir qatorda bazi salbiy taraflari haqida ham aytib, xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so‘z: Multimedia, ijobjiy, jarayon, innovatsiya, texnika, fan, rivojlanish, tushuncha, taklif, taraqqiyot, jahon standartlari, pedagog, novator.

ABSTRACT

This article talks about the good and bad sides of using multimedia tools in the process of teaching elementary school students, and the author gives opinions and conclusions. In particular, it was mentioned about the appropriate and correct use of these tools in educating the young generation in the era of today’s advanced technology and innovation, as well as about creating an understanding of multimedia tools in students starting from the first grade. In addition, some negative aspects are also mentioned, conclusions and suggestions are presented.

KEY WORDS: Multimedia, positive, process, innovation, technique, science, development, concept, offer, development, world standards, pedagogue, innovator.

Ustozlar biz uchun yaratgan tomonidan beriladigan alohida ne’matdir. Aynan ular millatni ulug‘likka yetaklaydilar, insonni yetuk qiladilar va dunyoni yaxshi tomonga o‘zgartiradilar. Aynan o‘qituvchilar bizga qalam qilichdan muhimroq ekanligini o‘rgatadi. Ular jamiyatda hurmatga sazovordir, ular insonlarning turmush darajasini

oshiradi. Ular odamni tarbiyalaydi va insoniy fazilatlarni o‘rgatadi, yaxshi jamiyat qurishga hissa qo‘sadi. Unib o‘sib kelayotgan yosh avlodga to‘g‘ri ta’lim tarbiya berish va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish juda muhim sanaladi. Chunki, yoshlar bizning kelajagimizdir. Bunday mas’uliyatli ishni bajarishda esa o‘qituvchilarining o‘rnini beqiyos. Aynisa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ahamiyati va o‘rnini alohida ta’kidlamasdan iloji yo‘q. Chunki, aynan ular oppoq qog‘oz kabi beg‘ubor bolalarning ongiga bilim, mакtab, o‘qish kabi tushunchalarni ilk marotaba singdiradilar. Darhaqiqat, buyuk allomamiz Alisher Navoiy hazratlari aytganlaridek : “Yoshlikda olingan bilm, toshga o‘yilgan naqsh kabidir.” Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak o‘sib kelayotgan yosh avlodga kichik yoshidan boshlab to‘g‘ri va samarali bilm berish ularning ertangi kunda qay darajada bilmli bo‘lishini va yuksak natijalarga erishishini qaysidir ma’noda ta’minlab, belgilab beradi deyishimiz mumkin.

Xo‘s, bugungi rivojlanib borayotgan texnika va texnologiya asrida ilg‘or, yetuk va novator o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagoglar qanday dars o‘tish jarayonlarini tashkil etishi va nimalarni bilishi kerak? Albatta bu mavzu haqida gap ketadigan bo‘lsa, o‘qituvchilarimizning bugungi kunda dars jarayonini tashkil etishda multimedya vositalaridan foydalanishlarini va zamonaviy usullar bilan mediaga tayangan holda dars o‘tishlarini ta’kidlab o‘tmasdan ilojimiz yo‘q. Dars jaroyanlariga bo‘lgan bunday yondashuv bugungi davr uchun ham o‘quvchilar uchun ham o‘zining samarasini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Yangilanib va rivojlanib borayotgan mamlakatimizda o‘quvchilarining ilm olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Zamonaviy maktablar barpo etilib, eng so‘nggi texnika jihozlari bilan taminlangan. Bugun, deyarli har bir maktablar kompyuterlarlar bilan to‘liq jihozlangan, har bir o‘quv honasida kata hajmli televizorlar mavjud. Bu esa o‘quvchilarga zamonaviy bilm berish va yuqori natijalarga erishish uchun juda qo‘l keladi. Ta’limning noananaviy shakli orqali bilm berish, multimedya vositalaridan foydalanish o‘quvchilarining dars mashg‘ulotiga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. O‘quvchilar darsda yanada faolroq va diqqatliroq bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda bu shaklda dars jarayonlarining olib borilishi zerikib qolishning va har doimgi bir xillikning oldini oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga kichik yoshidan boshlab multimedia vositalari, ularning qanday ishlashi, vazifalari haqida tushuntirib borish ularning yuqori sinfda bu vositalardan foydalanayotganda qiyalmasliklariga va texnologik bilimlarining oshishiga yordam beradi. Dars mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga televizor orqali mavzuga oid turli video va audiolar, qiziqarli metodlar bilan olib boriladigan topshiriqlar, dam olish daqiqalari uchun mo‘ljallangan materiallar qo‘yib berilishi mumkin.

Dars jarayonlarini bu shaklda tashkil etishning bir qancha salbiy jihatlari ham borligini inkor eta olmaymiz. Masalan, darslar bu shaklda olib borilganda o‘quvchilar

va o‘qituvchi orasidagi muloqot kamayadi, bola har doim ko‘rish yoki eshtish orqali o‘rganish rejimiga moslashib qoladi. Yana o‘rganilayotgan mavzu haqida faqat ekranda ko‘rgan malumotlarigina xotirasida yaxshi saqlanib qoladi. O‘qish va musaqlil o‘rganishga nisbatan ishtiyoqi pasayishi mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilar texnika vositalariga bog‘lanib qolish ehtimoli ham ortishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yaxshi savod chiqarishi va yuqori darajadagi usullar bilan bilim olishi uchun dars jarayonlarida o‘rinli ravishda multimedia va texnologiya vositalaridan foydalanish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaev M. Tarbiya, ma’naviyat, ma’rifat. Muloqot. 1999. №3. 11-13 b.
2. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: Fan, 2006.
3. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediya. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006, 150-151-betlar.
4. Xo‘jayev B.Q. Didaktik vositalar majmui. – Buxoro: 2007, 26-27-betlar.
5. <https://mineconomy.uz>
6. www.kitob.uz